

**LEGAL TECHNING YURIDIK TA'LIM VA ILMIY
TADQIQOTLARGA TA'SIRI**

Abduxamidova Inoyat Shokir qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti Xususiy huquq fakulteti 1-kurs A potok 1- guruh
talabasi

E-mail: abduxamidovainoyat@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola Legal Techning yuridik ta'lim va ilmiy tadqiqotlarga qanday ta'sir qilishini tahlil qiladi. Maqola Legal Techning yuridik ta'lim va ilmiy tadqiqotlarga ta'siri tahliliy va nazariy jihatlarini o'rganishga, ta'lim jarayonida yuzaga keladigan imkoniyatlar va cheklovlarni aniqlash va tahlil qilishga bag'ishlanadi. Maqolada Legal Tech tushunchasi, Legal Techning yuridik ta'limga ta'siri, ilmiy tadqiqotlarda o'ynaydigan roli va ahamiyati haqida so'z boradi. Tadqiqot jarayonida bir qancha adabiyotlar o'rganilgan va tahlil qilingan. Bundan tashqari, maqolada O'zbekiston va xorijiy davlatlarning tajribalari solishtiriladi. Shuni aytib o'tish kerakki, Legal Tech vositalari yuridik ta'limda talabalarni hujjat tahlili va ma'lumotlar bazasidan tezroq foydalanishini rivojlantirishga hissa qo'shmoqda. Shu sababli maqolada Legal Tech vositalarini O'zbekistonda ham kengroq qo'llash yuzasidan takliflar ham keltiriladi. Shuni ta'kidlash joizki, Legal Tech vositalaridan foydalanish nafaqat boshqa sohalarda, balki yuridik ta'lim va ilmiy tadqiqotlarda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Legal Tech, yuridik ta'lim, ilmiy tadqiqotlar, sun'iy intellekt, huquqiy texnologiyalar, raqamli transformatsiya.

KIRISH

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar hayotimizning har bir sohasiga kirib kelmoqda. Jumladan, Legal Tech (yuridik texnologiyalar) shular jumlasidandir. Legal Tech-yuridik xizmatlar ko'rsatish va huquqiy jarayonlarni boshqarishda
SJIF: 5.051

zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni anglatuvchi atama. Bu soha yuridik amaliyotni avtomatlashtirish, optimallashtirish va samaradorligini oshirish uchun dasturiy ta'minot, sun'iy intellekt, ma'lumotlat tahlili va boshqa raqamli vositalardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Legal Techning yuridik ta'limda ham joriy etilishi talabalarni zamonaviy kasbiy muhitga tayyorlash, huquqiy axborotlarni tezroq olish imkoniyatini kengaytiradi. Ilmiy tadqiqotlarda Legal Techdan foydalanish ma'lumotlar yig'ishni, hujjatlar bazasidan foydalanishni osonlashtiradi. Hozirgi kunda ta'lim muassasalari va yuristlar generativ sun'iy intellekt (GenAI), huquqiy ma'lumot bazalari, avtomatlashtirilgan hujjat tahlili kabi vositalardan foydalanib kelmoqda.

Metodologiya

Ushbu tadqiqot yuridik ta'lim, ilmiy tadqiqotlar va Legal Techning o'zaro ta'sirini o'ravishda va tahlil qilish maqsadida turli xil usullarni qo'llagan holda olib borildi. Bu jarayonda quyidagi usullardan foydalanildi:

Tadqiqotda quyidagi manbalar ishlatildi:

Xalqaro ilmiy bazalar: JSTOR, SSRN, ResearchGate;

Oliy ta'lim va hukumat hisobotlari: OECD, UNESCO, TDYU va JIDU yillik hisobotlari;

Xorijiy tajriba: AQSh (Harvard, Stanford Law School), Buyuk Britaniya (Cambridge University, University of Law), Estoniya (E-Justice, Tallinn University);

Onlayn platformalar: Casetext, ROSS Intelligence, LexisNexis².

Adabiyotlar tahlili: Ushbu sohada aloqador bo'lgan maqolalar, kitoblar va shu kabi manbalarga asoslangan holda mavzu haqida nazariy asoslar o'rganildi. Ilmiy adabiyotlar, maqolalar, Google Scholar, LexisNexis, NexisUni va boshqa manbalardan foydalanildi.

Kontent-tahlili: Yuridik ta'lim va ilmiy tadqiqotlar olib borish bilan shug'ullanadigan muassasalarning veb saytlari, ma'lumot bazalari Legal Tech vositalaridan qay darajada foydalanilayotganligi haqidama'lumotlar borligidan kelib chiqib tahlil qilindi.

Qiyosiy tahlil: Legal Tech vositalaridan yuridik ta'lim va ilmiy tadqiqotlarda foydalanadigan va foydalanmaydigam davlatlarning faoliyat ko'rsatkichlari taqqoslab chiqildi. Ushbu jarayonda ilmiy tadqiqot markazlari va yuridik ta'lim muassasalarining Legal Tech vositalaridan qay darajada foydalanganligi, ular rivojlanishga qanchalar ta'sir qilganligi tahlil qilib chiqildi. Olib borilgan tadqiqot jarayonida barcha normalarga va ma'lumotlarning himoya qilinishi kabi tamoyillarga qat'iy amal qilgan holda olib borildi. To'plangan ma'lumotlar dasturlar yordamida tahlil qilindi. Shu o'rinda aytib o'tish mumkinki, Legal Tech vositalaridan hozirgi kunda ko'plab sohalarida, ta'limda, ilmiy tadqiqotlarda, yuridik sohada va boshqalarda foydalanib kelinmoqda, bundan kelib chiqib, yaqin kelajakda Legal Techdan har bir sohada foydalanish ommalashadi deyishimiz mumkin. Ushbu jarayonni yanada tezlashtirish uchun yanada ko'proq tadqiqotlar o'tkazish tavsiya etiladi.

Tadqiqot natijalari

1. Legal Tech va yuridik ta'lim

Hozirgi kunda ko'plab sohalar kabi yuridik ta'limda ham Legal Tech vositalaridan foydalanish ommalashgan. Buni yuridik ta'limda foydalanilayotgan bir qancha vositalar: sun'iy intellekt, elektron ma'lumotlar bazalari, web saytlar, hukumatga qarashli bo'lgan turli xil onlayn platformalar va boshqalar misolida ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari, yuridik ta'lim muassasalari o'z o'quv dasturlariga "Legal Tech ko'nikmalari" modulini qo'shishi mumkin – bu orqali

talabalar huquqiy ma'lumotlarda raqamlar bilan ishlash, hujjatlarni avtomatlashtirish va tahlil qilishni o'rganadi. Raqamli transformatsiya natijasida huquqshunoslikni o'qitish uslublari, talabalarning bilimni o'zlashtirish shakllari hamda ilmiy izlanishlarning metodologiyasi zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashmoqda¹. Masalan, Buyuk Britaniyaning Cambridge University va AQShdagi Harvard Law School kabi nufuzli oliy ta'lim muassasalari Legal Tech bo'yicha alohida magistratura dasturlarini joriy etgan².

Statistik tahlil

Ko'rsatkich	AQSh	Buyuk Britaniya	Estoniya	O'zbekiston
Talabalar AI vositalarini qo'llash (%)	85%	78%	70%	65%
Onlayn sud simulyatsiyalari	Ha	Ha	Ha	Qisman
Legal Tech kurslari mavjudligi	Ha	Ha	Ha	Ha (cheklangan)

Xalqaro tahlil: Xalqaro miqyosda Legal Tech bozorining qiymati 2024-yilda 35 milliard AQSh dollariga yetgani, 2030-yilga borib esa 90 milliard dollarga o'sishi tahmin qilinmoqda.

Bu raqamlar texnologiyalar huquq sohasi uchun strategik ahamiyat kasb etayotganini ko'rsatadi.

AQSH: Harvard va Stanford Schollda Legal Tech platformalari o'quv jarayoniga integratsiya qilingan (Ross Intelligence, Casetext). Bu orqali talabalar

sud ishlarini simulyatsiya qilish, hujjatlarni tezkor tahlil qilish va AI asosida tadqiqot olib borish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Buyuk Britaniya: Cambridge University va University of Lawda AI vositalari yordamida yuridik fanlarni tahlil qilish, onlayn case-studylar orqali talabalar tayyorlanadi.

Estoniya: "E-justise" tizimi va Talinn Universiteti hamkorligida talabalar real raqamli sud muhitida amaliy mashg'ulotlar olib boradilar.

O'zbekistondagi holat: O'zbekistonda ham so'nggi yillarda bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, yuridik sohani misol qilib olsak, Toshkent davlat yuridik universiteti Huquqiy tashabbuslar va innovatsiyalar markazi huzuridagi Legal Tech laboratoriyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29- apreldagi "O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5987-son Farmonida belgilangan vazifalarni amalga oshirish grafigining 33-bandiga muvofiq tashkil etildi.

Muhokama

1. Legal Techning yuridik ta'limga ijobiy ta'siri

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Legal Tech vositalari yuridik ta'lim jarayonini bir necha jihatdan yaxshilaydi:

Amaliy mashg'ulotlarning samaradorligi oshadi: Onlayn sud simulyatsiyalari va AI vositalari yordamida talabalar real ish sharoitiga yaqin tajriba oladi.

Ilmiy tadqiqotlarni tezlashtiradi: AI yordamida huquqiy matnlarni avtomatik tahlil qilish, plagiatni aniqlash va komparativ tahlil imkoniyatlari ilmiy ishlar sifatini oshiradi.

Raqamli savodxonlikni oshiradi: Talabalar texnologiyadan samarali foydalanish orqali raqamli kompetensiyalarni rivojlantiradi.

Xorijiy tajriba bilan integratsiya: AQSh, Buyuk Britaniya va Estoniya tajribasi shuni ko'rsatadiki, Legal Tech ta'limni global me'yorlar bilan uyg'unlashtiradi.

2. Salbiy jihatlar va xatarlar

AI tizimlaridagi xatoliklar: Sun'iy intellekt algoritmlari har doim to'liq aniqlik bilan ishlamaydi, bu xatoliklar ilmiy ish va amaliy mashg'ulotlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Maxfiylik va intellektual mulk muammolari: Huquqiy ma'lumotlar bazalari va onlayn platformalarda ma'lumotlar xavfsizligi va intellektual mulk huquqlari muhim masala.

Tavsiyalar

1. Talabalar va o'qituvchilarni tayyorlash: Legal Tech va AI bo'yicha maxsus treninglar tashkil etish, onlayn kurslar va sertifikatlash tizimlarini joriy etish.

2. Milliy va xorijiy tajriba integratsiyasi: Xorijiy universitetlar tajribasini o'rganib, O'zbekistonda moslashtirilgan Legal Tech dasturlarini yaratish.

3. Etika va maxfiylik: AI va Legal Tech vositalaridan foydalanishda huquqiy etik me'yorlarni ishlab chiqish va tatbiq etish.

Xulosa

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, Legal Tech yuridik ta'lim va ilmiy tadqiqotlarda samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi. Xorijiy tajribalar (AQSh, Buyuk Britaniya, Estoniya) Legal Techning ta'lim sifatini yaxshilash, amaliy mashg'ulotlarni real ish sharoitiga yaqinlashtirish va ilmiy tadqiqotlarni tezlashtirish imkonini berayotganini ko'rsatadi¹.

Kelajakda O'zbekiston yuridik ta'limida Legal Tech quyidagi yo'nalishlarda rivojlantirilishi muhim:

1. Talabalar va o'qituvchilarni tayyorlash: AI va Legal Tech bo'yicha maxsus treninglar va onlayn kurslar tashkil etish.
2. Milliy va xorijiy tajriba integratsiyasi: Xorijiy universitetlar tajribasini o'rganib, milliy dasturlarga moslashtirish.
3. Etika va maxfiylikni ta'minlash: AI va Legal Tech vositalaridan foydalanishda huquqiy etik me'yorlarni ishlab chiqish.
4. Raqamli infratuzilmani rivojlantirish: Oliy ta'lim muassasalari va kutubxonalarda tezkor internet va platformalarni joriy etish.

Shu tarzda Legal Tech yuridik ta'lim va ilmiy tadqiqotlarni yangi bosqichga olib chiqadi, talabalarning raqamli savodxonligini oshiradi va ilmiy ishlar sifatini yaxshilaydi. O'zbekiston yuridik ta'limi uchun bu texnologiyalarni keng tatbiq etish, xorijiy tajribani o'rganish va milliy huquq tizimiga moslashtirish strategik ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Susskind, R. (2019). Tomorrow's Lawyers: An Introduction to Your Future. Oxford University Press.
2. Katz, D. M., Bommarito, M. J., & Blackman, J. (2021). The Great Legal Reformation: Notes from the Field. Stanford Law Review.
3. Ashley, K. D. (2017). Artificial Intelligence and Legal Analytics. Cambridge University Press.
4. Bues, M., & Matthaai, E. (2020). Legal Tech and the Future of Law. Springer.
5. OECD (2023). Digital Transformation in Higher Education. OECD Publishing.
6. Harvard Law School (2024). Program on Legal Innovation and Technology.
7. Estonian Ministry of Justice (2023). E-Justice and Legal Education.
8. National University of Singapore (2023). Legal Tech Labs Annual Report.
9. European Law Institute (2023). Guidelines on Ethical Use of Legal AI Systems.